

AXBOROTLASHGAN JAMIYATDA MA'NAVIY HAYOTNING O'ZIGA XOS
XUSUSIYATLARI

Po'latov Ro'zimurod Farhod o'g'li
Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada axborotning davlat va jamiyat hayotida muximligi, shaxs va jamiyat hayotida axborot takomillashuvi, jamiyatda kompyuter texnologiyalari, axborotni qayta ishlash, axborot jamiyatining asosiy xususiyatlari, axborot almashinuvi haqida fikr muloxaza yuritiladi.*

Kalit so'zlar. *Axborotlashtirish, axborot, shaxs, davlat, jamiyat, ma'naviy hayot.*

Аннотация: *В данной статье рассматривается значение информации в жизни государства и общества, совершенствование информации в жизни личности и общества, компьютерные технологии в обществе, обработка информации, основные черты информационного общества, обмен информацией.*

Ключевые слова. *Информация, информация, человек, государство, общество, духовная жизнь.*

Annotation: *This article discusses the importance of information in the life of the state and society, the improvement of information in the life of individuals and society, computer technologies in society, information processing, the main features of the information society, information exchange.*

Key words. *Information, information, person, state, society, spiritual life.*

Axborot texnologiyalari sohasidagi sezilarli yutuqlar ilmiy va ilmiy-ommabop nashrlarda “axborot jamiyati” nomining paydo bo'lishiga zamin yaratdi. Axborotlashtirish hayot va madaniyat sharoitlarini, madaniyatni, xulq-atvor stereotiplarini, fikrlash tizimlarini tubdan o'zgartirib, jamiyat hayotining barcha sohalariga inqilobiy ta'sirini ko'rsatyapdi. Aksariyat olimlar axborot jamiyatini asosiy mahsuloti axborot bo'lgan jamiyat deb biladilar. Ba'zi ma'lumotlarga qaraganda, bizning eramizning boshidan beri insoniyat tomonidan to'plangan ma'lumotlar ikki baravar ortgan, birinchi marta 1750 yilda, ikkinchi marta XX asr boshlarida, uchinchi marta 1950-yilda. 1950-yildan boshlab dunyoda ta'limning umumiy miqdori har 10 yilda ikki barobar, 1970 yildan boshlab har 5 yilda va 1991-yildan boshlab ikki baravar oshdi. Bugungi kunda dunyoda ta'lim hajmi 250 ming barobardan ortiq oshgannini takidlab o'tishimiz kerak. Amerikalik sotsiolog D.Bellning fikricha, “Axborotlashgan jamiyat, avvalo, ma'lumotlilik darajasi va malakasiga ko'ra, millat elitesini shakllantiradigan jamiyatdir. Tadqiqotchi axborotni jismonan iste'mol qilinmaydigan va eskirmaydigan “jamoaviy mahsulot” sifatida talqin qilib, industrial jamiyatda inson hayotiy faoliyatidagi mutlaqo yangi mahsulot bo'lgani uchun unga nisbatan o'sha davrda muomalada bo'lganidan o'zgacha me'yor va mezonlarni qo'llash kerakligiga

e'tibor qaratadi" [1]. So'nggi yillarda jamiyatda kompyuter texnologiyalari va axborotni qayta ishlash bo'yicha konsalting, ilmiy axborot va boshqa xizmatlar ko'rsatuvchi professional guruhlar vujudga kelmoqda. Yangi ilmiy va kasbiy yo'nalishlarning paydo bo'lishi kadrlar tayyorlashning alohida tizimini talab etadi. Bu tizim nafaqat jamoatchilikni xabardor qilish davrining voqeligi va o'qitish mazmuniga, balki usul va vositalarga ham mos kelishi zarur. Davlatimiz tomonidan ta'limni axborotlashtirish masalasiga ham alohida e'tibor qaratilmoqda. Jamiyatni axborotlashtirish jarayoniga tizimli yondashish zarurati XX-asrning 90-yillari boshlarida namoyon bo'la boshladi. Tarixiy jihatdan bilimlarni axborotlashtirish ikkita asosiy yo'nalishda boshqariladigan va boshqarilmaydigan tarzda amalga oshirilishi belgilangan. Boshqariladigan bilimlarni axborotlashtirish uyushgan jarayon bo'lib, moddiy resurslar bilan birga davom etadi. U ko'pchilik tomonidan qabul qilingan va asosli xulosalar va dasturlarga tayanadi. Ta'limni axborotlashtirish ta'lim tizimi xodimlari tashabbusi bilan pastdan yuqoriga qarab amalga oshiriladi va ta'lim faoliyatining eng dolzarb yo'nalishlari va fan sohalarini o'z ichiga oladi. Hozirgacha biz yashab turgan dunyomizda 6 ta axborot inqilobi sodir bo'lgan. Dastlabki ya'ni birinchi bosqichda - til va insonning aniq nutqi, ikkinchi bosqichda - yozish, uchinchi bosqichda - kitoblar nashr etish, to'rtinchi bosqichda - axborotni uzatish va tarqatish, to'rtinchi davrda esa telegraf, telefon, radio, televizor kabi uskuna va asboblar ixtiro qilindi. So'nggi beshinchi bosqichni insoniyat kompyuter texnologiyalaridan faol foydalana boshlagan vaqtlarga to'g'ri kelishi mumkin. Bugun biz kompyuter tarmoqlarining paydo bo'lishi va ularning multimedia texnologiyalari va virtual reallik bilan integratsiyalashuvi tufayli oltinchi axborot inqilobining guvohi bo'lmoqdamiz. Axborotning shaxs, davlat va umuman jamiyat hayotidagi o'rni juda katta va muhim. Axborot insonni atrof-muhitga moslashtirishga qaratilgan aloqa jarayonining natijasidir" [2].

Endilikda ijtimoiy muhitda yangi axborot jamiyatini yaratish maqsadi muloqot jarayoniga o'ziga xos xususiyatlar va o'zgarishlarni olib kirmoqda. Axborotning qimmatliligi shaxsning sub'ektiv xulq-atvoriga ega ekanligi bilan hisoblanadi. Agar inson maqsadiga erishsa, u holda foydalanilgan axborot e'tiborga olinmaydi va o'z qiymatini yo'qotadi. Shuni ham takidlash kerakki, qadriyatlar turlicha. Qiymat - bu ma'lumotning shaxsga maqsadga erishish yo'lini tanlash jarayonida foydalanishga imkon yaratadigan xususiyatidir. Ushbu fikrlarni umumlashtirgan holda aytish mumkinki, jamiyatda qadriyatga ega bo'lgan ma'lumotlardan tashqari, umuman qadrsiz yoki salbiy qiymatga ega bo'lgan ma'lumotlar ham mavjuddir. "Axborotlashgan jamiyat rivojlanishining muhim qismi sifatida quyidagi xususiyatlar bilan tavsiflanadi, maqsadga erishish uchun axborotni tanlash imkonini beruvchi axborotning qiymati, ma'lum bir vaziyatga bo'lgan ehtiyojni belgilaydigan ma'lumotlarning foydaliligi, ma'lum vaqt davomida ma'lumotlarning buzilishi".

Axborot insoniyatning asosiy resursi, asosiy qadriyatiga aylandi desak hatto bo'lmaydi. Axborotning ijtimoiy sohadagi rolining ortib borishi va axborot munosabatlarining paydo bo'lishi axborot jamiyati davriga qadam qo'yganlik ko'rsatkichi hisoblanadi. Axborotga bo'lgan ehtiyojning mohiyati barcha ehtiyojlarni qondirish va ularning imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish uchun har qanday harakatlarni amalga oshirishga qaratilgan maqsadlar va ularga erishish yo'llarini tanlashda axborotni ishlab chiqarish, qabul qilish va undan foydalanishda o'z aksini topadi. Ma'naviy rivojlanish uchun ijobiy hissiy ma'lumotlar zarur. Axborotga bo'lgan ehtiyoj insonni o'z-o'zini rivojlantirishga, to'plangan bilimlar orqali boshqa ehtiyojlarni qondirishga yo'naltiradi. Shu boisdan ham yapon olimi Y. Ma'suda Axborotlashgan jamiyat insoniyatning eng ulkan yutuqlaridan biri, – deb yozadi. Yangi texnologiyalarning rivojlanishi ijtimoiy hayotning o'ziga xos ijobiy o'zgarishlariga olib keladi. Axborotlashgan jamiyatda insoniy qadriyatlar o'zgaradi. Bu jamiyat sinfsiz va ziddiyatsiz bo'lib, uni kichikroq davlat apparati boshqaradi” [3.].

Axborotlashtirish quyidagi xususiyatlar bilan tavsiflanadi, axborotni to'plash, qayta ishlash, saqlash, tarqatish va ishlab chiqarish qobiliyatlarini oshirish, har kimning insoniy axborot resurslaridan erkin foydalanishini ta'minlash, inson hayotining istalgan sohasiga axborot texnologiyalaridan kompleks foydalanish va joriy etishi, axborot resurslarining ustuvorligi va yo'nalishi. Axborot oqimida axborot muhitining qonuniyatlari haqidagi bilim, qobiliyat, qadriyatlarni shakllantirish insonga hayotda to'g'ri yo'ldan borishga, muhim qarorlar qabul qilishga imkon yaratadi. Axborotlashtirish jarayoni Axborot va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan jamiyat va inson hayoti taraqqiyotining resursi sifatida to'liq foydalanish insonning axborot madaniyatini rivojlantirish va shakllantirishning ahamiyatini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Yigirmanchi asrda jamiyatda axborotlashtirish jarayonining asosiy yo'nalishlari quyidagilar, jamoat hayotida keng foydalanish ayniqsa mikroprotessorlar va elektron hisoblash mashinalari sanoat, transport, maishiy va boshqalar, intellektual ish sifatini oshirish va bajarish vaqtini qisqartirish maqsadida avtomatlashtirish. Bu tendentsiya XX-asrning 70-80-yillarida jadal rivojlangan bo'lib, sivilizatsiya rivojiga sezilarli ta'siri ko'rsatdi. Axborot jarayonining jadal rivojlanishining asosiy ko'rsatkichi sifatida axborotni olish, tarqatish, tashish, almashish va kerakli axborotni topish va axborotni qayta ishlash, ularni amalga oshirish, boshqaruvni texnik vositalar bilan ta'minlash imkoniyatlari oshib bormoqda. Olimlar axborot jamiyatida axborot va axborot resurslarining ro'li keskin o'zgarib borayotganini tan olmoqdalar. Axborot insoniyat uchun muhim manbaga aylandi. Xom ashyo va energiyadan kam foydalanilgan holda, tabiiy resurslari cheklangan kichik davlatlar ishlab chiqarishdagi ilmiy yutuqlari sezilarli iqtisodiy muvaffaqiyatlarga olib kelishi mumkinligini ko'rsatib qo'ydi. Misol uchun Gollandiya, Daniya, Tayvan, Yaponiya, Singapur. Matbuot erkinligi, oshkoralik, axborot qudratidagi ommaviy axborotning ko'pligi iqtisodiyotni rivojlantirish, bozor mexanizmlarini yo'lga qo'yish

imkonini yaratadi. Ta'lim va sog'liqni saqlash tizimini takomillashtirish, atrof-muhitni muhofaza qilishni moliyalashtirish yaxshi natijalarga erishishga imkon beradi. Fuqarolarning davlat organlari bilan aloqasini elektron platforma orqali aloqaga o'tkazish, ya'ni davlat o'z fuqarolari uchun elektron xizmatlar ko'rsatishi va elektron mahsulotlarni taklif etishi bu raqamli iqtisodiyotning asosiy qismi sanalanadi. Yurtimizda ushbu sohani keng rivojlantirish Prezidentimiz ta'kidlaganidek, bizdagi eng asosiy og'riqli muammolardan biri korrupsiya illatiga barham berishda muhim omil sanaladi. Jamiyat taraqqiyotining turli sohalaridagi tub o'zgarishlar axborot va axborot xizmatlari bilan bevosita uzviy bog'liq hisoblanadi. Axborotlashtirish jarayoni iqtisodiy, texnologik, siyosiy va madaniy rivojlanish imkoniyatlarini ochib beradi. Axborotlashtirish - bu ta'lim, madaniyat va ijtimoiy sohaga ta'sir qiluvchi ijtimoiy-madaniy jarayondir. Axborotlashtirish jarayoni inson muhitini sezilarli darajada o'zgartirib yubordi. Sir emaski bugungi kunda ijtimoiy hayotda axborotning ahamiyati tez sur'atlar bilan ortib o'sib bormoqda ko'p kanalli televideniye, internet, radiostantsiyalar, filmlar, reklama va plakatlarning atrof-muhitning muhim elementiga aylandi. Biz axborot muhiti bilan chambarchas bog'liq bo'lgan o'zimiz va boshqalar haqida xabarlarini qabul qilish va almashish jarayoni, axborotga to'la axborot makonida yashamoqdamiz. Axborot insonning ma'naviy va moddiy hayoti bilan uzviy bog'liqdir. Demak, axborot insonning ijtimoiy-madaniy hayoti va moddiy farovonligini belgilab beradi. Jamiyatning axborot tuzilishi inson ijodini rivojlantirish uchun ko'plab bilim va qadriyatlarni shakllantirishga yo'l ochib berdi. Ammo, bu imkoniyatlardan faqat axborot qobiliyati va malakasiga ega bo'lgan odamlargina foydalanishi mumkin. Shunday qilib, inson muhitidagi o'zgarishlar axborot madaniyatini rivojlantirish jarayonining bir qismi bo'lgan axborot savodxonligini talab etadi. Insoniyat ikki tomonlama vaziyatda qolib ketdi, bu esa axborot jarayonlarining tez sur'atlar bilan o'sib borishi sharoitida ijtimoiy hayot normasi sifatida qarab kelinadi. Axborotlashtirish jarayonida madaniyatga ta'sir ko'rsatadigan texnika va texnologiyalar keng joriy etilmoqda, bu madaniyat va axborot o'rtasidagi munosabatlarni belgilaydigan axborot madaniyati desak adashmaymiz. Shaxsning axborot madaniyati madaniy muhitni o'rganish va tan olish jarayonida namoyon bo'ladi. Natijada shaxs harakat sub'ekti sifatida, o'zlashtirilishi lozim bo'lgan jarayon va hodisalar esa harakat ob'ektiga aylanadi. Ayni shu ma'noda, "O'zbekistonda aholining ijtimoiy himoyasi, ma'rifatchilik darajasini oshirishda axborot tizimi islohotlarining hozirgi davrdagi ahamiyati, innovatsion texnologiyalarni joriy qilishning ustuvor yo'nalishlarini aniqlash bo'yicha ilmiy izlanishlar ustida ishlanmoqda. Bugungi iqtisodiy-ma'naviy vaziyatda har bir mamlakat o'z milliy madaniyatiga tayangan holda jamiyatning ma'naviy qiyofasini belgilamoqda. O'zbekistonda qator Sharq mamlakatlari kabi qaror topadigan jamiyatning modeli jamoaviylik va undan kelib chiqadigan milliy axloqqa tayaniladi. Shu sababli axborotlashgan jamiyat rivojida milliy-axloqiy masalalarni tadqiq qilish dolzarb vazifa sifatida e'tirof etilmoqda". [4.] Axborot jamiyatining asosiy xususiyatlari

quyidagilardan iborat, iqtisodiyotning tovar ishlab chiqarishdan xizmatlar ko'rsatishga qayta moslashishi, intellektual texnologiyaning sanoat va texnologik sohalarga tengligi, qiymat tizimida moddiy mulk ahamiyatining pasayishi, moddiy ishlab chiqarishda axborot va ilmiy faoliyatning raqobatdosh ustunligini oshirish, jamiyatning texnologik va siyosiy-ijtimoiy tuzilishiga asoslangan ta'lim va fanning ahamiyatini oshirish, har qanday sohadagi ilmiy-ma'rifiy faoliyatga alohida e'tibor qaratiladi, ijtimoiy tashkilotlar tuzilmasidagi o'zaro ta'sir, ya'ni madaniy sohadagi o'zgarishlardir. Axborot jamiyatini shakllantirishda ommaviy axborot vositalarining o'рни muhim. Darhaqiqat, axborot makonida mahalliy, mintaqaviy, milliy ommaviy axborot vositalari bilan bir qatorda global axborot manbalari ham keng tarqalib, ommaviy axborot vositalarining globallashuv jarayoni bizga tanlovning yangi formulalarini taklif etmoqda. Yangi axborot jamiyati vujudga kela boshladi va bugungi kunda jamiyatdagi eng muhim qadriyat axborot va bilim hisoblanadi. Axborot jarayonlari jamiyat uchun siyosiy va ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishda muhim o'rin tutadi. Axborot texnologiyalarining rivojlanishi va keng qo'llanilishi jamiyat hayotining iqtisodiyot, siyosat, madaniyat va fan kabi barcha sohalariga ta'sir ko'rsatib kelmoqda. Umumiy ma'lumot insonning atrof-muhitdagi yo'nalishlarni tushunishi, keyingi harakat yo'nalishini tanlashi uchun zarur hisoblanadi. Asosan, axborot, tashviqot daraxt sifatida umumiy ildiz orqali tarqaladi va rivojlanadi. Uning asosiy manbalari ommaviy aloqa va telekommunikatsiya sanaladi. Ommaviy axborot vositalari eng muhim ma'lumotlarning axborot funksiyasini bajaradigan, odamlarni demokratiya va sivilizatsiya qadriyatlarini, ularning huquq va majburiyatlarini bilish va hurmat qilishga tarbiyalovchi demokratik institut desak xato bo'lmaydi. Ayniqsa, so'z, matbuot erkinligi, radio va televideniya dan foydalanish imkoniyati kafolatlangan mamlakatlarda ommaviy axborot vositalari fuqarolarning o'zi-o'zini anglashi, jamiyat hayotidagi faolligi, yetakchilik va mas'uliyatini oshirishda beqiyos imkoniyatlarga ega. J.Yaxshilikov fikricha esa, "Hamma narsaning yaxshi va yomoni bo'lganidek, bu qulayliklar bilan birga internetdan samarali va maqsadli foydalanuvchilardan tashqari undan vaqtni bekorga o'tkazish, turli ko'ngilochar hamda behayo saytlardan foydalanuvchilar ham ko'payib bormoqda"[5]. Zamonaviy taraqqiyot yo'lidan borayotgan O'zbekiston xalqining iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy hayotida demokratik islohotlar chuqurlashib, jamiyatni umumiy o'zgartirish jarayoni uchun zarur shart-sharoitlar barqarorlashtirilyapdi. Ijtimoiy taraqqiyotning hozirgi bosqichida yosh davlatimiz oldida sivilizatsiya yutuqlarini moddiy va ma'naviy ne'mat sifatida asrab-avaylashdek vazifa turibdi. Davlat mustaqilligining yangi iqtisodiy siyosati bilan huquqiy, ijtimoiy, demokratik davlat barpo etish vazifasi respublika axborot makonida katta o'zgarishlarni amalga oshirmoqda. Bu vazifalarni amalga oshirish jamiyat hayotini to'g'ri tushunish, qabul qilish va to'g'ri tasvirlash imkoniyati yaratilgandan keyingina amalga oshadi. Axborot almashinuvi yangi demokratik imkoniyatlarga, barqaror siyosiy, ijtimoiy va demokratik jarayonlarni qaror toptirishga zamin yaratadi.

Soʻz erkinligi, matbuot erkinligi, va mustaqil xususiy ommaviy axborot vositalarining paydo boʻlishi Oʻzbekiston axborot makonidagi demokratik jarayonlarning natijasi desak xato boʻlmaydi. Oʻzbekiston uchun barqaror demokratik taraqqiyot modelini tanlashda jamiyatni erkin va huquqiy, demokratik modelga aylantirish yoʻllari va vositalarini izlash hamda xolis va haqqoniy axborot muhimdir. Axborotlashgan jamiyat turli gʻoyalar va taʼlimotlarni, bilimlarni, turli sivilizatsiya va qadriyatlarni tahlil qiladi, odamlarning tafakkurini kengaytiradi, muayyan gʻoyalarga eʼtiborni jalb qiladi, ularni chuqurroq anglashga yordam beradi. Iqtisodiyot davlatning tayanchi boʻlsa, uning milliy ruhi, ongi qalbi sanaladi. Jamiyatdagi ijtimoiy institutning oʻziga xos turi boʻlgan ommaviy axborot vositalari davlat qalbi orqali butun organizm uchun zarur boʻlgan oziq moddalarni, fuqarolarning birligi hamda umumiy maqsad va manfaatlarini targʻib etadi. Busiz mustaqil davlatning kelajagini bashorat qilish qiyin. Ayni paytda Oʻzbekiston nafaqat iqtisodiy manfaatlar nuqtai nazaridan, balki strategik, siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan ham jahon hamjamiyatining eʼtiboriga tushmoqda. Jamiyatning sivilizatsiyasi va dunyoviyligi davlatning madaniyatga munosabati bilan oʻlchanadi. Hozirgi sivilizatsiyalashgan jamiyatda bilim va axborot kuchi mablagʻlar va davlat hokimiyatini boshqarishda asosiy rol oʻynay oladigan siyosiy kuchga aylandmoqda. Oʻzbekistonning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy rivojlanishiga hissa qoʻshadigan turli muhim masalalar axborot makonida keng yoritilmoqda va oshkoralik tamoyillari nuqtai nazaridan keng oʻz ifodasini topyapdi. Bugun jamiyatimiz murakkab bozor, iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy oʻzgarishlarni boshdan kechirmoqda, yangi sharoitga maʼnaviy-psixologik moslashish davrini boshidan oʻtkazmoqda. Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev takidlaganidek, “Bir narsani bilishimiz kerak: ilmsiz, innovatsiyasiz oldimizga qoʻygan maqsadlarga hech qachon erisha olmaymiz. Hisobot uchun emas, natija uchun ishlash kerak” [6].

Xulosa Xulosa qilib aytish mumkinki, ommaviy axborot vositalari orqali insonlar ijtimoiy normalarni axloqiy qadryatlarni idrok etadilar hayotiy tamoyillarini takomillashtiradilar. Ommaviy axborot vositalari jamiyatda kechayotgan jarayonlarni yoritish orqali jamoatchilik fikrini shakllantiradi va ijtimoiy jarayonlarni boshqarish, qaror qabul qilishga yordam beradi. Axborot oqimining tarqalish tezligi ortgan va avj olgan bugungi zamonda ommaviy axborot vositalari davlat hayotida muhim oʻrin egallamoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Bell D. Грядущее postиндустриальное общество: опыт социального прогнозирования. Пер.с англ. В. Л. Иноземцева. -М.: Academia, 1999. 956-s
2. Uebster F. Теории информационного общества. – М.: Аспектпресс, 2004. – 400 s
3. Ishmuhammedov R. Innovatsion texnologiyalar yordamida taʼlim samaradorligini oshirish yoʻllari, -T., Nizomiy nomidagi TDPU, 2009

4. Каримова Г.А. Ўзбекистонда ахборотлашган жамият шаклланишининг миллий ахлоқий жиҳатлари Фан доктори (PhD) диссертацияси автореферати. Тошкент – 2020. –Б.5.
5. Yaxshilikov J.Ya, Muhammadiyev N.E. Milliy g'oya: O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi. Toshkent. Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2018. B 503-504
6. Rasmiy veb sayt: www.president.uz Shavkat Mirziyoyev: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 3 dekabr kuni ilm-fan va innovatsiyani rivojlantirish borasida oliy ta'lim muassasalari, ilmiy tashkilotlar, tarmoq va hududlar oldidagi ustuvor vazifalar muhokamasi yuzasidan videoselektor yig'ilishidagi nutqidan. 03.12.2020.
7. G.G'afforova, A.Abdullayev . (2021) Axborotlashgan jamiyatda ma'naviy hayotning o'ziga hos hususiyatlari. Academic research in educational sciences. Special Issue 2.
8. G.G'affarova, D.Jumanov Ijtimoiy tarmoqlarning yoshlar ma'naviyatiga ta'siri. Academic research in educational sciences 2 (4), 974-984, 2021
9. G.G'afforova, S.Polvonova. Inson kapitalini rivojlantirishda milliy qadriyatlarning ahamiyati. Academic research in educational sciences, 2 (4) 1514-1523., 2021
10. Po'latov R. F. (2023). Yosh avlodda ma'naviy axloqiy sifatlarni rivojlantirish. Academic Research in Educational Sciences, 4(1), 316-320.